



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



NEGA TALABALAR CHET ELDA O‘QISHNI XOHLAYDI?

Tóychiyeva Madinaxon

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi kunda o‘zbek yoshlarining chet elda ta‘lim olishga bo‘lgan qiziqishi, uning sabab va afzalliklari haqida so‘z yuritiladi. Muallif xorijda o‘qishning yoshlar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochishi, turli madaniyatlar bilan tanishish orqali dunyoqarashni kengaytirishi va milliy rivojlanishga xizmat qilishini ta‘kidlaydi.*

Kalit so‘zlar: *ta‘lim, chet elda o‘qish, yoshlar, globalizatsiya, madaniyat, tajriba.*

Universitet bu nafaqat bilim olish, balki yangi va mustaqil hayot maktabiga o‘tish demakdir. Bugungi globallashuv davrimizda o‘zbekistonlik yoshlar orasida chet el oliygohlarida o‘qishga qiziqish ortib bormoqda. Shuning uchun o‘z mamlakatidan chiqib, dunyo universitetlariga yo‘l olayotgan yoshlar soni yildan yilga tobora ko‘paymoqda.

Avvalo, chet elda o‘qish talabalarga turli sohalarida o‘z yo‘lini topish imkonini beradi. Masalan, O‘zbekistonda tibbiyot yoki muhandislik yo‘nalishlari bo‘yicha o‘qiyotgan talaba Germaniyada o‘qisa, zamonaviy texnologiyalar bilan ishlashni o‘rganadi. Bu esa, o‘z navbatida, uni yurtida malakali mutaxassis bo‘lishiga rag‘batlantiradi. Dunyoning eng yirik davlatlarida ta‘lim olgan yoshlar, masalan, AQSh, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda turli xalqaro kurslar, grantlar va tajriba dasturlarida qatnashish imkoniga ega bo‘ladi.

Shu bilan birga, chet elda o‘qish – yoshlar uchun yangi bilim, tajriba va dunyoqarash eshiklarini ochadi. U yerdagi madaniyat sizga turli xalqlarning milliy qadriyatlarini, hayot tarzi va o‘ziga xos fikrlashini o‘rgatadi. Masalan, siz Janubiy Koreyada o‘qiyotgan bo‘lsangiz, ularning mehnatsevarligi va vaqtga hurmatini o‘zingizda mujassamlashtirasiz.

Turli madaniyatlar bilan tanishgan sari inson “dunyo men o‘ylaganchalik kichik emas, unda men o‘rganadigan juda ko‘p narsa bor” degan haqiqatni chuqur his qiladi. Bu faqat dars emas, balki hayot saboqlari ekanligini ham anglatadi. Ota-onasidan uzoqda yashash, talaba o‘ziga tayanishni, vaqtini to‘g‘ri taqsimlashni va mustaqil fikrlashni o‘rganadi. Sir emaski, davlatimizda ham ta‘lim tizimini rivojlantirish, xorijiy universitetlar bilan hamkorlik qilish yo‘lga qo‘yilgan. Hozirda ko‘plab xalqaro kompaniyalar va universitetlar O‘zbekistonda filiallarini ochmoqda, bu esa yoshlar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Muxtasar aytganda, chet elda ta‘lim olish bugungi kunda yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, global tafakkurni shakllantirish uchun muhim omil hisoblanadi. Eng asosiysi shundaki, xorijda o‘qigan har bir talaba o‘z bilim va tajribasini yurt ravnaqi yo‘lida qo‘llashga harakat qilsa, bu nafaqat shaxsiy, balki milliy yutuqqa ham aylanadi!





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim sohasidagi farmonlari va qarorlari.
2. www.edu.uz — O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rasmiy sayti.
3. “Yoshlar va ta’lim” jurnali, 2024-yil, 3-son.
4. Internet manbalari va muallifning shaxsiy kuzatuvlari.

